

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosari:

**Nozliya Normurodova
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov**

Mas'ul kotib:

Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag'dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O'zRFA), Jo'raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO'TAU), Ibrohimov Yo'ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO'TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo'jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO'TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO'TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro'z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo (ToshDO'TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO'TAU), Ubaydullayev Alisher (O'zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO'TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO'TAU).

"O'zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. "O'zbekiston: til va madaniyat jurnalining "Folklorshunoslik. Shevashunoslik" seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o'zbek folklorining dolzarb masalalari, o'zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o'zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistik, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma'lumotlarini o'zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg'or g'oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Samixon Ashirboyev

O'zbek adabiy tili va labial singarmonizm
(XX asrning 20-yillari munozarasidan) 6

Marhabo Umurzaqova

Dialektizmlar lisoniy shaxs ijtimoiy belgilarini aks ettiruvchi vosita sifatida 15

Muyassar Xolova

O'zbek tili dialektal bazasini shakllantirish prognozi 22

Elyor Alimardanov

Xorazm dialektal zonasidagi o'zbek va turkman shevalari izoglossalar tizimi
(fonetik izoglassalar) 30

Akbarali Boymirzayev

Talabalarining grammatik bilimini baholashda testdan foydalanish 39

Озодахон Гулямова

Теоретические основы медиадискурса: структурные актеристики и
типология 45

Qobilbek Xushboqov

Shafoat Rahmatullo Termiziyning antitezalardan foydalanish mahorati .. 51

Nigora Raxmatova

"Benefits and Limitations of Using Authentic Materials in Language
Instruction: Boosting Vocabulary and Language Skills" 63

Folklorshunoslik

Aziza Saydullayeva

Özbek ve Türk Halk Masallarında Kadın Figürleri 82

Saodat Kodirova

Maqollar nashrida matniy farqlar (Gulxaniy asarlari misolida) 86

Guljahon Xo'jayeva

Qadimiy epik an'analar va tarixiy roman poetikasining uzviyligi
94

Shohida Mo'minova

Bolalar she'riyatidagi janrlar takomili 102

Sevinch G'ofurova

Uch baxshining Hasani (Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkan, Zohir
shoir Qo'chqor o'g'li, Rahmatulla yusuf o'g'li variantlari misolida) 102

Nargiza Mirzaaliyeva

Adabiyotshunoslikda badiiy obrazlarning qiyosiy tipologiyasi 111

Nargiza Umurzaqova

Tohir Malikning "odamiylik mulki" asarida Navoiy hikmatlarining o'rni ..120

Maqollar nashrida matniy farqlar (Gulxaniy asarlari misolida)

Saodat Kodirova ¹

Abstrakt

Ushbu maqolada ba'zi qadimiy maqollar va ularning bugungi adabiyotdagi yangi versiyalari yoritilgan. Maqollar o'zbek xalq og'zaki ijodining eng qadimiy xalq og'zaki janrlaridan biri bo'lib, unda xalqning dunyoqarashi, jamiyatga munosabati, axloqiy me'yorlari aks etadi. Shuning uchun maqollarning umri uzoq. Har bir tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy voqealar maqollarda o'z izini qoldiradi. Gulxaniy asarlarida arabcha va forsha so'zlar, tojikcha iboralar, maqollar ham ko'p uchraydi. Bu esa o'quvchiga asarning mohiyatini to'laonli anglab yetishida, xalq og'zaki ijodi namunalarini tushunib, to'g'ri talqin qilishda, kerakli xulosalar chiqarib hayotga tatbiq etishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Tojikcha keltirilgan maqollar tarjima qilib berilgan. Bu esa o'quvchilar tushunmagan so'zlarning tarjimasini kitobning lug'at bobidan, qiyin ibora, ifodalarning ma'nosini har sahifaning oxirida berilgan izohlardan topishlariga imkon beradi.

Kalit so'zlar: asar (yozma asar), syujet (mavzu), mazmun (ma'no), g'oya, xarakter (tartib).

Kirish

Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari va uning g'azallari H.Yoqubov tomonidan keng miqyosda o'rganilib, 1960-yilda ikkinchi marta nashr etilgan. Bu kitob 71 sahifadan iborat bo'lib, kirish qismida Gulxaniyning qiyinchilik bilan o'tgan hayot yo'li, o'sha davr insonlariga xos illatlar aks etgan qimmatli "Zarbulmasal" asari va g'azallardan tashkil topgan. Kitobda "Zarbulmasal" asarining tushunish qiyin bo'lgan so'zlari, ibora yoki ifodalar, maqollar tarjimai sahifa oxirida berilgan. Ayrim arabcha, forsha so'zlar tarjimai kitobning oxirida lug'at qismida berilgan. H.Yoqubov bu asar haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Gulxaniy asarlari hali juda kam o'rganilgan, u chuqur o'rganilishi va puxta izohlanishi lozim. Gulxaniyning nashr etilayotgan bu asarini o'qigan dunyo kitobxonlari o'zbek xalqi satirik prozasining o'tmishdagi eng yaxshi namunasi bilan tanishadilar. "Zarbulmasal" ("Yapaloqqush hikoyasi") oddiy xalq orasidan chiqqan yozuvchi Gulxaniyni – Qo'qon xonligidagi feodallar tabaqasining murosasiz dushmani,

¹Saodat Kodirova – f.f.f.d.(PhD), Navoiy davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi dotsenti.

E-mail: s.a.qodirova@buxdu.uz

Iqtibos uchun: Kodirova S.A. 2025. "Maqollar nashrida matniy farqlar (Gulxaniy asarlari misolida)". O'zbekiston: til va madaniyat. Folklorshunoslik. Dialektologiya 1: 79-85

uni fosh etuvchi kishi, umr bo'yi oddiy xalq bilan birga bo'lgan va uning manfaatini kuylagan yozuvchi ekanligini ko'rsatadi"[Ёқубов, 1960: 16].

Asosiy qism. “Zarbulmasal” asari H.Yoqubov tomonidan ikkinchi marta nashr etilgan. U Gulxaniyning badiiy merosini chuqur o'rganib tahlil qilgan. Asarda ishlatilgan maqollarni ham tushunarli tarzda tarjima qilgan. H.Yoqubov “Zarbulmasal” asarida Gulxaniy mustabid xonga yoki tekinxo'r feodallarga qarshi kurashuvchi, to'laqonli xalq qahramonini yarata olmagan, lekin XVIII-XIX asrlardagi feodal jamiyatdagi hukmron sulolalarning yaramas urf-odatlarini fosh qila olgan deb hisoblaydi.

1972-yilda S.Dolimov tomonidan “Zarbulmasal” asari qayta nashr etildi. S.Dolimov “Zarbulmasal”ni o'quvchilarning saviyasiga moslab qayta ishlagan. “Zarbulmasal” asarining tili, xususan, iboralar, ifodalar, unda ishlatilgan maqollar ancha murakkab. Shuningdek, unda arabcha va forscha so'zlar, tojikcha iboralar, maqollar ham ko'p uchraydi. Bu esa o'quvchiga asarning mohiyatini to'laqonli anglab yetishida, xalq og'zaki ijodi namunalari tushunib, to'g'ri talqin qilishda, kerakli xulosalar chiqarib hayotga tatbiq etishda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham S.Dolimov muharrirligidagi nashrda o'quvchilarga tushunish yengil bo'lishi uchun asarning oxirida arabcha, forscha va ba'zi o'zbekcha so'zlarning lug'ati, asarning har sahifasi oxirida qiyin jumlar, ibora va ifodalarning ma'nosi berilgan. Tojikcha keltirilgan maqollar tarjima qilib berilgan. Bu esa o'quvchilar tushunmagan so'zlarning tarjimasini kitobning lug'at bobidan, qiyin ibora, ifodalarning ma'nosini har sahifaning oxirida berilgan izohlardan topishlariga imkon beradi.

S.Dolimov asarning kirish qismida: “Gulxaniy “Zarbulmasal” asarida o'z davrining eng aktual masalalarini badiiy ifodalab berdi. Feodal sinfining chirib borishi, bu sinf xulq-atvorining tanazzuli, mamlakatning vayronligi “Zarbulmasal” asarida allegorik obrazlarda o'z ifodasini topgan. Xususan, hayotiy obrazlar, realistik sahnalar, xarakterli portretlar (Yapaloqqush, Boyqush, Sho'ranul, Ko'rqush, Kordon va boshqalar), hajviy bo'yoqlar, falsafiy muhokamalar – bularning hammasi masalning eng muhim estetik fazilatidir” [Долимов, 1972: 4], – deb yozadi.

“Zarbulmasal” asarining yana bir qancha nusxalari bor. Jumladan, 1972-yilda ko'chirilgan nusxasi Bobur nomidagi Andijon viloyat kutubxonasining qo'lyozmalar bo'limida saqlanadi. Yana uch tasi (1871, 1873-yillarda ko'chirilgan nusxalar va bir sanasi yo'q qo'lyozma) Qo'qondagi G'afur G'ulom nomli adabiyot muzeyida saqlanadi. Yana ikki qo'lyozma marhum adabiyotshunos olim Buyuk Karimiy qo'lida saqlangan bo'lib, shu nusxalar asosida u bir vaqtlar asarning tanqidiy matnini tuzgan, lekin matn nashr qilinmay qolib ketgan. Asarning dastlabki litografik nusxalari esa 1890- va 1896-yillarga tegishlidir [Исхоқов, 1974: 8]. Gulxaniyshunoslikda matnshunos, manbashunos, tilshunos olim Fathiddin Is'hoqovning amalga oshirgan ishlari, ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir. F.Is'hoqov Gulxaniy davriga oid barcha

manbalarni jamlab, “Zarbulmasal” asarining barcha nusxalarini qiyosan o’rganib, uning tanqidiy matnini tayyorladi va 1974-yilda “Zarbulmasal” asarini Toshkentda qayta nashr ettirdi. Asar 76 sahifadan iborat bo’lib, “Zarbulmasal”ning olti qo’lyozmasi va o’ndan ortiq bosma nusxalarini qiyoslab chiqish va ularni ilmiy-tanqidiy asosda o’rganishlar natijasida bosma qilingan. Olim o’zining 20-25 yillik umrini Gulxaniy ijodini o’rganishga bag’ishladi. Bu borada Gulxaniy va uning adabiy merosi haqidagi bir qancha salmoqli risolalari, maqolalari e’lon qilingan. F.Is’hoqov 1997-yil 16-dekabrda “Gulxaniy “Zarbulmasal”ining ilmiy-tanqidiy matni” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi. U o’z tadqiqotlarida Gulxaniy hayoti va adabiy merosini o’rganish jarayonida boshqalar tomonidan yo’l qo’yilgan xatoliklarni tuzatdi, adibning taxallusi, qismati, qushlar obrazini noto’g’ri nomlash, asarning janriy xususiyatlarini belgilash borasidagi noto’g’ri talqinlarga aniqlik kiritadi.

F.Is’hoqovning ilmiy asarlarida “Zarbulmasal” xalqchil nasrning o’ziga xos namunasi ekanligi, asarning g’oyaviy-badiiy dunyosi chuqur tahlil qilinadi. Uning ishlarida, ayniqsa, “Zarbulmasal”ning til xususiyatlari keng ko’lamda o’rganildi. Asarning muqaddima qismida u Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi aytiladi. Adabiyotga homiy bu siymo xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni – xalq maqollarini chuqur o’ylab, kitob holiga keltirish lozimligini aytadi hamda Gulxaniyni shu nozik xizmatga loyiq deb topadi [Sabitova, <https://cyberleninka.ru/article/n/muhammadsharif-gulxaniy-asarlarining-o-zbek-mumtoz-adabiyotida-tutgan-o-rni/viewer>].

“Zarbulmasal” asarining H.Yoqubov, S.Dolimov va F.Is’hoqov tomonidan nashr etilgan nusxalari o’rtasida ba’zi farqlar mavjud. Ushbu farqlar asarning matniga tegishli. Xususan, asarning turli nashrlarida maqollarning matnida qator tafovutlar ko’rinadi. Quyida asarning uchta nashrida maqollar matni qiyosiy jadvalini keltiramiz.

1-jadval

	H. Yoqubov nashri (1960y.)	S.Dolimov nashri (1972)	F.Is’hoqov nashri (1974)
1	Bor maqtansa topilur, yo’q maqtansa chopilur	Bor maqtansa topilur, yo’q maqtansa chopilur	Bor maxtansa topilur, yo’q maqtansa chopilur
2	Yolg’on masal turmas	Yolg’on masal turmas	Uy o’ylagan qul tek turmas
3	Uyat o’limdan qattig’	Uyat - o’limdan qattig	Uyot o’lumdin qattiq
4	Ermon yog’ochining egilgani - singani, er yigitning uyalgani – o’lgani	Ermon yog’ochining egilgani - singani, er yigitning uyalgani - o’lgani	Erman yag’ochini egilgani – singani, er yigitni uyolgani – o’lgani

5	Ko'r tutganini qo'ymas va kar eshitganini qo'ymas	Ko'r tutganini qo'ymas va kar eshitganini qo'ymas	Ko'r tutganini va kar eshitganini qo'ymas
6	Bitar ishning boshig'a - yaxshi kelur qoshig'a	Bitar ishning boshig'a -yaxshi kelur qoshig'a	Bitar ishni boshiga yax- shilar kelur qoshiga
7	Bemor tuzalgusi kelsa, tabib o'z oyog'i birla kelur	Bemor tuzalgusi kelsa, tabib o'z oyog'i birla kelur	Bemor tuzalgusi kelsa, tabib o'z oyog'i bila kelur
8	Oyoq yugurigi oshqa, og'iz yugurugi boshqa	Oyoq yugurigi oshqa, og'iz yugurugi boshqa	Oyog' yugurigi oshqa, og'iz yugurugi boshqa
9	Teng-tengi birla , tezak qopi birla	Teng-tengi birla , tezak qopi birla	Teng tengi bilan , tezak qofibilan
	Maqtangan qiz to'yda uyalar	Maqtangan qiz to'yda uyalar	Borlikdin maxtanma , maxtangan qiz to'yda (uyalur)
	O'zini maqtag'oni o'limning qorovuli	O'zini maqtag'oni o'limning qorovuli	Uzini maxtagani o'lumni qorovuli
	Oyni etak birla yashursa bo'lur- mu	Oyni etak birla yashursa bo'lurmu	Oyni etak bilan yoshurub bo'lmas
	Chumchuq semir- sa botmon bo'lur- mu	Chumchuq semirsa botmon bo'lurmu	Chumchuq semurub botmon bo'lmas
	Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular	Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular	Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kulur
	Ebi bilan so'zlag- anning qurboni bo'l	Ebi birlon so'zlagan- ning qurboni bo'l	Ebi bilan (kulganni) qurboni bo'l
	Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur, og'o bo'lur yigitning peshonasi keng bo'lur	Qo'chqor bo'lur qo'zining peshonasi do'ng bo'lur, og'o bo'lur yigitning peshonasi keng bo'lur	Qo'shqor bo'lur qo'zini peshonasi do'ng bo'lur, og'a bo'lur yigitni etakisi keng bo'lur
	Chuchvarani xom sanabsan	Chuchvarani xom sanabsan	Tushbirani xom sanabsan
	Otasi urmas qo'ng'izni , bolasi urar to'ng'izni	Otasi urmas qo'ng'izni , bolasi urar to'ng'izni	Otasi urmas qo'ng'uzni , bolasi urar to'ng'uzni
	Oti ulug', sufراس qurug'	Oti ulug', sufراس qurug'	Oti ulug', surfasi quruq
	Uyda chaksa uni yo'q, tom boshida qo'sh tanur	Uyda chaksa uni yo'q, tom boshida qo'sh tanur	Uyida chaksa uni yo'q, tomini boshida qo'sh tanur
	Sichqon sig'mas iniga , g'albir bog'lar dumiga	Sichqon sig'mas inig'a , g'alvir bog'lar dumig'a	Sichqon iniga sig'mas, dumiga g'albir bog'lar
	Sabr qilsang, g'o'radin halvo bitar, Besabrlar o'z oyog'idin yitar	Sabr qilsang, g'o'radin halvo bitar, Besabrlar o'z oyog'idin yitar	Sabr qilsang, g'o'radin xalvo bitar. Besabrlar o'z oyog'idin yitar

	Shirin-shirin soʻzlasang ilon inidan chiqar; achchiq-achchiq soʻzlasang musulmon dinidan chiqar	Shirin-shirin soʻzlasang ilon inidan chiqar; achchiq- achchiq soʻzlasang musulmon dinidan chiqar	Jili-jili soʻzlasang, ilon inidan chiqar; achchiq- achchiq soʻzlasang musulmon dindin chiqar
	Behuda zoʻr urish belni sindiradi	Behuda zoʻr urish bel- ni sindiradi	Behuda zoʻr berish belni sindiradi
	Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyilmas	Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyilmas	Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham quyulmas
	Xaromzodaning quyrugʻi bir tutam	Xaromzodaning quyrugʻi bir tutam	Xaromzodani quyrugʻi bir tutam
	Qizni kim suy- mas , qimizni kim ichmas	Qizni kim suymas , qimizni kim ichmas	Qizni kim aytmas , qimizni kim ichmas
	Kichkina demang bizni, koʻtarib uramiz sizni	Kichkina demang bizni, koʻtarib uramiz sizni	Kichkina demang bizni, sakrab uramiz sizni
	Kuykunak oʻz yerida gʻoz olur; ham oʻrdak	Kuykunak oʻz yerida gʻoz olur, ham oʻrdak	Uz joyinda Kuykanak ham qoz olur ham oʻrdak
	Sigir suv ichguncha buzoq muz yalar	Sigir suv ichguncha buzoq muz yalar	Sigir suv ichguncha, buzov muz yalar

Nashr etilgan kitoblardagi baʼzi bir maqollar oʻrtasida katta farq boʻlsa, baʼzilarida esa u qadar farqlanmaydi. Masalan, H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida “Bor maqtansa topilur, yoʻq maqtansa chopilur” tarzida berilgan boʻlsa, F.Isʼhoqov nashrida “Bor maxtansa topilur, yoʻq maqtansa, chopilur” shaklida berilgan. H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida *maqtanmoq* feʼli boshqa maqollarda ham shu tarzda uchraydi, lekin F.Isʼhoqov nashrida *maxtanmoq* tarzida ishlatilganligini koʻrishimiz mumkin. Birinchi va ikkinchi nashrlarda “Maqtangan qiz toʻyda uyalar”, “Oʻzini maqtagʻoni oʻlimning qorovuli” maqollari ham shular jumlasiga kiradi. Uchinchi nashrda esa shu maqollar “Borlikdan maxtanma, maxtangan qiz toʻyda (uyalur)”, “Oʻzini maxtagani oʻlumni qorovuli” tarzida berilgan. Shuningdek, “Koʻr tutganini qoʻymas va kar eshitganini qoʻymas” maqoli toʻliq shaklda H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida keltirilgan boʻlsa, F.Isʼhoqov nashrida “Koʻr tutganini va kar eshitganini qoʻymas” deb qisqa qilib berilgan. H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida berilgan maqollar deyarli bir xil ishlatilgan, u qadar katta farq mavjud emas. Lekin baʼzi maqollarida S.Dolimov soʻzlarning tarixiy shakllarini ishlatgan. Masalan, H.Yoqubovda “Ebi bilan soʻzlaganning qurboni boʻl” shaklida, S.Dolimovda “Ebi birlon soʻzlaganning qurboni boʻl” shaklida berilgan. Bu maqolda farq faqat *bilan* va *birlon* soʻzlari orqali koʻrinib turibdi. F.Isʼhoqovda esa maqol mazmuni ham oʻzgaradi: “Ebi bilan (kulganni) qurboni boʻl” shaklida beriladi. “Sichqon sigʻmas iniga, gʻalvir bogʻlar dumiga” maqoli uch nashrda

uch xil shaklda uchraydi. H.Yoqubovda *g'alvir* so'zi *g'albir* tarzida, S.Dolimov nashrida *iniga*, *dumiga* so'zi *inig'a*, *dumig'a* tarzida, F.Is'hoqov nashrida esa "Sichqon iniga sig'mas, dumiga g'albir bog'lar" shaklida qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, bu kabi maqollar orasidagi farqni *bilan* so'zlarining *birla*, *bila*, *birlon* shakllarida ishlatilishida, kelishiklarning har xil qo'llanilishida (bittasida *-ning* tarzida, boshqasida *-ni* shaklida), *g'* va *g* harflarining ishlatilishida ko'rishimiz mumkin. Bu farqlar maqol matnining shaklini o'zgartirgan, xolos. Maqol matnidagi mazmunga ta'sir etmagan. Bugungi kunda ham ushbu maqollar deyarli shu shaklda ishlatiladi.

Xulosa. Yuqoridagi uchta nashr o'rtasida katta farq ko'rinadigan maqollar ham uchraydi. Masalan, H.Yoqubov va S.Dolimov nashrlarida "Uydagi so'z bozorg'a rost kelmas" maqoli F.Is'hoqov nashrida "Uydagi savdo bozorga rost kelmas" ko'rinishida uchraydi. Bu yerda ikkala nashrda *so'z* deb ishlatilsa, aslida F.Is'hoqov keltirgandek *savdo* so'zi ishlatilishi kerak. Bundan ko'rinib turibdiki, F.Is'hoqov "Zarbulmasal"dagi barcha maqollarni oldingi nashrlar bilan solishtirib, qiyoslab eng to'g'ri variantni taqdim etadi. "Zarbulmasal" o'zbek adabiyotining qiziqarli syujetga ega, xalqchil yozilgan, majoziy xarakterdagi eng nodir manbasidir. Unda xalqimizning urf-odatlarini, o'tmishi, milliy qadriyatlarini, til xazinasini o'z ifodasini topgan.

Adabiyotlar

Ёқубов Х. (1960). Гулханий Зарбулмасал ва ғазаллар. ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти. Тошкент.

Долимов С. 1972. Зарбулмасал. Ўқитувчи нашриёти. Тошкент.

Исҳоқов Ф. 1974. Зарбулмасал. Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент.

Sabitova T. Muhammadsharif Gulxaniy asarlarining o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rni. – Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar // <https://cyberleninka.ru/article/n/muhammadsharif-gulxaniy-asarlarining-o-zbek-mumtoz-adabiyotida-tutgan-o-rni/viewer>

Textual differences in the publication of proverbs (on the example of Gulkhani's works)

Saodat Kodirova ¹

Abstract

This article covers some ancient proverbs and their new versions in today's literature. Proverbs are one of the most ancient genres of Uzbek folk art, reflecting the worldview of the people, their attitude to society, and moral standards. That is why proverbs have a long life. Each historical period and socio-political events leave their mark on proverbs. Arabic and Persian words, Tajik phrases, and proverbs are also common in Gulkhani's works. This creates difficulties for the reader in fully understanding the essence of the work, understanding and correctly interpreting examples of folk art, drawing the necessary conclusions and applying them to life. The proverbs in Tajik are translated. This allows readers to find the translation of words they do not understand in the dictionary section of the book, and the meaning of difficult phrases and expressions in the notes at the end of each page.

Key words: work (written work), plot (subject), content (meaning), idea, character (manner).

References

1. H. Yakubov 1960. Gulkhani Zarbulmasal and the ghazals. UzSSR State Publishing House of Fiction. Tashkent.
2. Dolimov S. 1972. Zarbulmasal. Teacher's Publishing House. Tashkent.
3. Ishokov F. 1974. Zarbulmasal. Literature and Art Publishing House. Tashkent.
4. Sabitova T. The place of Muhammadsharif Gulkhaniy's works in Uzbek classical literature. – Pedagogical education cluster: problems and solutions // <https://cyberleninka.ru/article/n/muhammadsharif-gulxaniy-asarlaring-o-zbek-mumtoz-adabiyotida-tutgan-o-rni/viewer>

¹ Saodat Kodirova – Associate Professor of the Department of Primary Education Methodology, Navoi State University, Ph.D.

E-mail: s.a.qodirova@buxdu.uz

For citation: Kodirova S.A. 2025. *Textual differences in proverbs (on the example of Gulkhani's works)*. Uzbekistan: language and culture. Folklore. Dialektology 1: 79-85.